



# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan  
chiqa boshlagan

2019-yil. 12-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

# Я

## ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# LANGUAGE AND LITERATURE

## TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

Yangi yilingiz  
qutlug' bo'lsin!

2020



Ushbu sonda



Metodik tavsiya  
Zamon shakllarini  
o'qitishda nutqiy vaziyat  
omili

3  
bet



Dars – muqaddas  
Sintaktik vositalarni  
nutqiy uslublarda  
qo'llash. Gapda so'z  
tartibi uslubiyati

7  
bet



Tadqiqotlar  
"Farhod va Shirin" dostoni  
qo'lyozma manbalari  
va ilmiy-tanqidiy matn  
tadqiqiga doir

20  
bet



Литературоведение  
Актуализация  
старинного жанра:  
«Четверостишие»  
Сиражиддина Саййида

53  
bet



1991-yildan chiqa boshlagan



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 12-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### MUNDARIJA

#### METODIK TAVSIYA

Elyor XONNAZAROV. Zamon shakllarini o'qitishda nutqiy vaziyat omili .....	3
Zuhra BOZOROVA. Bolalarni maktabga tayyorlashda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati .....	5
Navruz MADALOV. Androgogik jarayonda chet til o'qitish masalalari .....	6

#### DARS - MUQADDAS

Maxfurat OTAYEVA. Sintaktik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash. Gapda so'z tartibi uslubiyati .....	7
Mohigul YANDASHOVA. El suygan shoir .....	10

#### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Farida KARIMOVA. "Hayrat ul-abror" dostonini interfaol usullar asosida o'rganish .....	13
Ilhomjon OXUNOV. Ta'lim va o'yin uyg'unligi orqali nutqni mustahkamlash .....	14
Fazliddin BADRIYEV, Shavkat MAXMAMURODOV. Yangi davr ta'limida shaxs tarbiyasi .....	15

#### ADABIY TAQVIM

Nigora URALOVA. Munaqqidlik mashaqqati .....	16
--	----

#### TADQIQOTLAR

Mohigul ALTUNDAG'. Badiiy tarjima - millatlararo aloqa vositasi .....	19
G'iyosiddin SHODMONOV. "Farhod va Shirin" dostoni qo'lyozma manbalari va ilmiy-tanqidiy matni tadqiqiga doir .....	20

#### TAHLIL

Shahnoza TURNIYOZOVA. Matn derivatsiyasida olmoshlarning o'rni .....	23
Nozima YULDASHEVA. So'z birikmasi hosil bo'lishida assotsiativ munosabat .....	25
Nargiza AMIRQULOVA. Tilning emotsional-ekspressiv vositalari .....	26
Ziyoda ARTIKOVA. 把 ba old ko'makchisining o'zidan keyin turuvchi to'ldiruvchi bilan aloqasi .....	27
Qurdosh QAHRAMONOV. Munosabatlar asosiga qurilgan asar .....	29
Durdona KADIRBEKOVA. Oysha MAJIDOVA. Origin of technical terms .....	31
G'ulom BOBOJONOV. Bir jumla balog'ati .....	33

#### KICHIK TADQIQOT

Rasima GABDULXAKOVA. Til ta'limida kommunikativ kompetentlilik .....	35
Barchin YUNUSOVA. "Alpomish" dostonidagi ayrim poetonimlarning lingvomanani xususiyatlari .....	36
Yulduz MAXAMMADIYEVA. Feruz davri adabiy muhiti .....	37
G'ayrat O'RAZBAYEV. Ijodiy niyatning badiiy butunlikka aylanishi .....	39

#### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Шахзода АБДУЛЛАЕВА, Масъуда ТАХИРОВА. Совершенствование механизмов проектирования учебных целей образовательного процесса .....	41
Рануша АТАЕВА. Интерактивное словообразование на практических занятиях по русскому языку .....	43
Гулмира ДОСБЕКОВА. Роль профилактических занятия в развитии речи детей раннего возраста .....	45

#### ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Саодат АДИЛОВА. О преподавании узбекского языка как иностранного .....	46
Наргиза ШАРИПОВА. Обучение научному стилю речи через систему Moodle .....	48
Лариса ФЁДОРОВА. Использование опорных таблиц и схем на занятиях .....	51

#### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Николай ИЛЬИН. Актуализация старинного жанра: «Четверостишия» Сиражиддина Сайида .....	53
Шахло БОТИРОВА. Поэтика художественного психологизма .....	55
Махфират КУРБОНАЛИЕВА. Структура и особенности «Тазкират-уш-шуара» Мутриби Самарканди .....	57
Агата ОСИПОВА. Художественная картина мира автора в тексте: концепция двоемирия .....	58
Дилафруз МУКУМОВА. Особенности подражания Саккои Бухорои поэтическому таланту Камола Худжанди .....	60

#### СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. «...Певец влюбленных женщин и царей» .....	62
--	----

### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

### Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV  
Dilshod KENJAYEV  
Maqsudxon YO'LDOSHEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Sirojiddin SAYYID  
Mamatqul JO'RAYEV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Nilufar Namozova

### Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV  
Ergesh ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Ehson TURDIQULOV

### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

### Nashr uchun mas'ul:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Emma TOROSYAN

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10,  
(71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.

e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi» dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 19.12.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>8</sub>. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma Adadi 3120 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

jurnali

LANGUAGE AND LITERATURE



Elyor XONNAZAROV,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Til o'rgatish kafedrasida o'qituvchisi

## ZAMON SHAKLLARINI O'QITISHDA NUTQIY VAZIYAT OMILI

Fe'ning zamon shakllari va ularning uslubiyatiga oid mavzular umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklaridan joy olgan. Ushbu darsliklarda berilgan zamon qo'shimchalari va ularning tasnifini puxta o'rganagan o'quvchi mavzuga oid mashqlar bilan ishlash jarayonida ayrim misollarga duch keladiki, ularning qaysi zamonga oidligi borasida muayyan xulosa berishga qiyinaladi. Chunki ayni o'sha misolda kelgan fe'l shaklining ma'nosi zamonlar tasnifidan kelib chiquvchi ma'nosiga mos kelmaydi. Amaldagi maktab darsliklarida keltirilgan zamon shakllari tasnifini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O'tgan zamon shakllari: -di, -gan, -ib, -gan edi, -gan ekan.

2. Hozirgi zamon shakllari: -yap, -moqda, -yotir, -ayotir, -yotib, -ayotib.

3. Kelasi zamon shakllari: -a, -y, -r, -ar, -moqchi, -ajak.

Bunda ikki jihatga e'tibor qaratilgan: harakat vaqti va nutq momenti. Harakat vaqti nutq momentidan oldin bo'lsa, o'tgan zamon; harakat vaqti va nutq momenti bir paytda bo'lsa, hozirgi zamon; harakat vaqti nutq momentidan keyin bo'lsa, kelasi zamon sifatida baholanadi. Shundan kelib chiqqan holda muayyan bir shaklning qaysidir zamonga oidligi xususida xulosa beriladi. Biroq darsliklardagi nazariy qoidalar va ayni tasnifdan kelib chiqib, quyidagi misollarda ajratib ko'rsatilgan fe'l shakllarining qaysi zamonga mansubligini belgilash mushkul:

1. *U kelinning og'zidan gapini uzib olganday tez-tez gapirar emish.* (Cho'lpon) (6-sinf, "Ona tili" (2017). 225-mashq. 90-bet.)

2. *Shunaqa, singlim, odam yig'lab-yig'lab marza olsa, kulib-kulib sug'orar ekan.* (P.Qodirov) (6-sinf, "Ona tili" (2017). 226-mashq. 91-bet.)

3. *Boshlangan ishni chala tashlab qo'yar emish.* (O.Muxtor) (6-sinf, "Ona tili" (2017). 226-mashq. 91-bet.)

4. *Ra'no uyda biror ish qilishi kerak bo'lsa, oyisining buyrug'ini kutib turmay bajaraverar ekan.* (A.Abdurazzoq) (6-sinf, "Ona tili" (2017). 230-mashq. 93-bet.)

E'tiborli jihati shundaki, bu misollarning barchasida fe'l shakllari to'liqsiz fe'llar (*ekan, emish*) bilan birga kelgan. Garchi 6-sinf "Ona tili" darsligida "O'tgan zamon shakllarida to'liqsiz fe'lining ishlatilishi" mavzusida to'liqsiz fe'llarning yetakchi fe'l zamon shakllaridan so'ng kelishi aytilgan bo'lsa-da<sup>1</sup>, misollardagi -ar shaklining kelasi zamonga oidligi gaplarning qaysi zamonga mansubligini aniqlashda o'quvchini ham, o'qituvchini ham ikkijlantiradi.

Umuman, to'liqsiz fe'l bilan birga kelgan -gan, -ar shakllari shakl yasovchi qo'shimchalarning qaysi turiga mansubligi ham munozarali. Agar sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimcha sifatida qaraladigan bo'lsa, lug'aviy shakl yasovchi; sof fe'lining zamon shakli deb qaralsa, sintaktik shakl yasovchi deb baholanishi kerak. Biroq bu holatda

qaysi fikr to'g'riligi haqida darsliklarda aniq xulosa berilmaganligi morfemik tahlil jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarda muammo tug'diradi. Biroq bu masala ayni mavzumizdan tashqaridaligi bois unga batafsil to'xtalmaymiz.

Tilshunos olim Azim Hojiyev to'liqsiz fe'l o'zicha harakat bildirsa olmasligi sababli fe'llarga xos bo'lishsizlik, daraja, zamon kabi ma'nolar va bu ma'noni ifodalovchi shakllarga ega bo'la olmasligini ta'kidlaydi.<sup>2</sup>

Bundan kelib chiqadiki, misollardagi *ekan, emish* singari vositalar zamon ma'nosi bilan bog'lanmagan va "eshitib bilinganlik", "noma'lum jihatning ma'lum bo'lganligi" kabi ma'nolarni berishga xizmat qiladi. Ular gapdagi boshqa so'zlar qatori nutq vaziyatini aniqlashtirishga yordam beradi. Shakliy jihatdan olib qaralganda misollarda -ar kelasi zamon qo'shimchasi turgan bo'lsa-da, ma'noviy jihatdan ularning barchasini kelasi zamon deb baholab bo'lmaydi. Bizningcha, -ar shakli bu misollarda nutq vaziyati bilan aloqadorlikda har uchala zamonga ishora qiladi.

Darsliklarimizda, hatto fe'l zamonlariga oid tadqiqotlarda ham bu xildagi zamonning nomlanishi borasida bir xillikka erishilmagan. Ba'zi manbalarda keltirilgan hozirgi-kelasi zamon tushunchasi esa gaplarda mavjud o'tgan zamonga ham oidlikni o'zida ifoda etmaydi. Shuning uchun yuqoridagi misollarda keltirilgan, shuningdek, "Men Vatanimni sevaman", "Men Toshkentda yashayman" kabi gaplarda zamoni belgilashda umumzamon terminidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tasnifda ayni bir zamonga tegishli deb berilgan shakl boshqa bir nutqiy qurshovda yana o'zga zamoni ifodalab kelish holatlari darsliklardagi mashqlar tarkibida, qolaversa, jonli so'zlashuvda juda ko'p uchraydi. Nutqiy qurshov – kontekst nutq vaziyati bilan bog'lanib, uni qisman o'zida aks ettiradi. Qo'shimchani qaysi zamon ma'nosini ifodalab kelayotganini belgilashda nutq vaziyati tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, -di qo'shimchasi o'tgan zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha bo'lsa-da, kontekstdan kelib chiqib hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ham bera oladi. Masalan, nutqimizda quyidagicha gaplar tez-tez uchraydi:

– *Yana qancha kutamiz?*

– *Ana, keldi!*

Ushbu nutq parchasidagi *keldi* so'zi mazmunan hozirgi zamonga ishora qiladi, shu sababli uni *kelyapti* shakli bilan erkin almashtirish mumkin. Biroq -di shaklining hozirgi zamonga ishora qilish holatlari ko'p emas. Yuqoridagi misolda ifodalangan hozirgi zamon ma'nosi nutqiy vaziyat va *kelmoq* fe'lining lug'aviy ma'nosi bilan aloqadorlikda yuzaga chiqqan. Shuningdek, kontekstdagi *ana* so'zi ham jarayonning hozirda yuz berayotganligini ta'kidlashga yordam bergan.



– Yur, **ketdik**. Qorning to'qmi? – dedi Habibulla. (Sh.Xolmirzayev) (10-sinf, "Ona tili" (2017). 53-bet).

Bu parchada **ketdik** so'zi kelasi zamon ma'nosini anglatyapti. Chunki harakat nutq momentidan keyin bajariladi. Bu vaziyatda **ketdik** so'zi **ketamiz** kelasi zamon shakli bilan almashtirilganda ayni bir vaqt ma'nosi ifodalanmaydi.

– Yur, **ketamiz**. Qorning to'qmi? – dedi Habibulla.

Albatta, **ketamiz** shakli ham nutq momentidan keyingi harakatga ishora qilyapti. Biroq bu **ketdik** shakli ifodalagan vaqtning ayni o'zida yuz beradigan harakat emas. Shu o'rinda savol tug'iladi. Harakat nutq momentidan qancha vaqt keyin bajariladi? Nutq momentidan keyingi vaqtning ham chegaralari, turlari bormi?

-di shakli ifodalagan kelasi zamon ma'nosi nutq momentidan keyingi eng yaqin nuqta bo'lib, **taklif**, **undash**, **bildirish** ma'nolarini ifodalaydi. Bu holat, asosan, I shaxs birlik va ko'plikda kuzatiladi. Bunda I shaxs birlikda bildirish ma'nosi, I shaxs ko'plikda **taklif**, **undash** ma'nolari anglashiladi. O'zbek tilida **-di** qo'shimchasining kelasi zamon ma'nosini ifodalab kelishi keng tarqalgan bo'lib, nutqimizdagi quyidagi gaplarda bildirish, ogohlantirish ma'nolarini ifodalaydi:

– Xayr, o'rtoqlar, men **ketdim**.

– Diqqat bilan tinglanglar, men **boshladim**.

Quyidagi gaplarda esa **taklif**, **da'vat** ma'nolarini ifodalagan:

– Qani, bolalar, **yo'zdik**.

– Tez-tez, **chopdik**.

Quyidagi berilgan misollarning barchasida **-di** shakli o'rniga kelasi zamonning **-a**, **-y** shakllarini qo'llash mumkin. Bunda farqli jihat shundaki, **-di** bilan ifodalangan kelasi zamon nutq momentiga eng yaqin bo'lsa, **-a**, **-y** shakllari ifodalagan zamon unga nisbatan keyinroqdir.

Yuqoridagi holatlardan tashqari **-di** qo'shimchasi jonli so'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatga bog'liq ravishda faraz ma'nosi bilan quyidagi misollarda ham kelasi zamonni ifodalaydi:

– Xo'p, ertaga o'qishni **tugatding**, keyin nima bo'ladi?

– Menga yo'lni qayta tushuntir, katta yo'l bo'ylab to'g'ri boraman, Ahmad akaning do'koni keladi, do'kondan chapga **burildim**, undan so'ng qayerga yuraman?

Ushbu gaplardagi **-di** shakli **-a** kelasi zamon qo'shimchasi bilan erkin almasha oladi. Bu holatda **-di** qo'shimchasi kelasi zamonda faraz qilinayotgan harakat-holatning yuz berishi aniqligi, amalga oshishiga ishonch kabi qo'shimcha ma'nolarini ifodalaydi. Bu ma'noda u uchala shaxsda ham birlik va ko'plikda qo'llana oladi.

**Nima** so'roq olmoshi **demoq**, **qilmoq** fe'llari bilan birga qo'llanganda ba'zan unga qo'shilgan **-di** qo'shimchasi ham kelasi zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

– Unda bu ishlarni bugunog amalga oshirishimiz **rak**, **nima deding(iz)**?

– Kursdoshlarim barcha gaplardan xabar topibdi, endi **nima qildim**?

**-di** shaklining bu gaplarda ifodalagan kelasi zamon ma'nosi I va II shaxs doirasida qo'llanilib, muayyan vaziyatga munosabat bildirish tinglovchi e'tiboriga havola etiladi. **Nima deding**, **nima dedingiz** kabi shakllarning kelasi zamon ma'nosini berishi faqat II shaxs birlik va ko'plikda, **nima qildim**, **nima qildik**, **nima qilding**, **nima qildingiz** kabi birlikmalar esa I va II shaxs birlik va ko'plikda qo'llaniladi.

**-yap** qo'shimchasi barcha darsliklarda hozirgi zamon qo'shimchasi sifatida keltiriladi. Ammo nutqiy vaziyatda kelib chiqib bu shakl kelasi zamon ma'nosini ham ifodalay oladi:

– Men ertaga **ketyapman**, Farhod. (E.A'zam) (10-sinf, "Ona tili". 53-bet.)

– Menga yordamning keragi yo'q edi. Dastpanja hali uzun, yoz deyman, yozmasa, ketiga bir tepama **uchib ketyapti**. (A.A'zam) (10-sinf, "Ona tili". 54-bet.)

Harakatning nutq momentidan keyin bajarilishini ta'riflash birinchi misolda ertaga ravishi ham yaqqol ifodalab turib, ikkinchi misolda ham **-yap** shakli o'rniga **-a** shaklini o'ziga almashtirish mumkin. Shuningdek, **-yap** qo'shimchasi o'tgan zamonga ham ishora qilishi mumkin: **Bir kuni ko'chada ketayotsam, Umri bir bosh uzum ko'tarib ketyapti**. (A.Qahhor) (10-sinf, "Ona tili". 54-bet.)

Bu misolda **bir kuni** ravishi harakatning nutq momentidan ancha oldin bo'lib o'tganligini anglatadi.

Yuqorida **-di** shaklining nutqiy vaziyatga bog'liq holda kelasi zamon ma'nosini berishini bir necha misollarda tahlil qildik. Buning aksi o'laroq, tasnifda kelasi zamon qo'shimchasi sifatida keltirilgan **-a**, **-y** shakllari ham nutqiy vaziyatdan kelib chiqib o'tgan zamon ma'nosini berishi mumkin: **Bir to'yda Gulandomga ko'zi tushadi-yu, halvatini yo'qotadi**. Yotsa ham, tursa ham ko'zidan Gulandom **ketmaydi**. (S.Ahmad) (10-sinf, "Ona tili". 55-bet.)

Zaynab o'zining muhabbatini eriga faqat kunduz kelib yetar oldida **e'lon qiladir**. (A.Qodiriy) (10-sinf, "Ona tili". 55-bet.)

Ushbu misollarda **ko'zi tushadi-yu**, **yo'qotadi**, **ketmaydi**, **e'lon qiladir** so'zlari kelasi zamon qo'shimchasi o'lib turgan bo'lsa-da, harakat-holatning kelajakda ro'y bermasligi, ularning allaqachon o'tgan zamon bo'lib o'tganligi nutq vaziyatidan seziladi. Bunda ayni muallifi voqealarga kitobxonni olib kirish, uning asaridagi jarayonlarni yaqqol tasavvur qilishini ta'minlash maqsadida o'tgan zamon shakli o'rnida kelasi zamon shakli qo'llaydi.

Xulosa qilib aytganda, shaklning qaysi zamonga o'raligini belgilashda harakat vaqti va nutq momenti bilan qatorda nutq vaziyati ham eng muhim nuqtalardan hisoblanadi. Yuqorida tahlilga tortilgan misollarda ayni shakllarning tasnifda berilgan ma'nosidan "chekingi holatlariga guvoh bo'ldik. Darsda mashqlar ustida ishlaganda, albatta, o'qituvchi bunday gaplarni nutq vaziyati bilan bog'lagan holda tushuntirishi zarur. Aks holda shaklning tasnifda berilgan ma'nosi bilan kontekstda ifodalagan ma'nosi bir-biriga mos kelmasligi mumkin.

<sup>1</sup>N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2017. 90-bet.

<sup>2</sup>A.Hojiyev. Fe'l. – Toshkent: Fan, 1973. 57-bet.